BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 3-bosqich talabasi Ruxshona Bo‘ritoshova
ruxshonaakbarqizi05@gmail.com
Denov tadbirkorlik va pedagogika fakulteti 3-bosqich talabasi Qobilova Nargiza
qobilovanargiza075@gmail.com
Denov tadbirkorlik va pedagogika fakulteti 3-bosqich talabasi Ibodullayeva Mahliyo
mahliyo20050105@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, interfaol, pedagogik mahorat, samaradorlik, didaktik vazifa, xotira, ta’lim sifati, bilim, axborot vositalari, kompyuter.

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflarda darslarni samarali tashkil etish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning bilish faolligini kuchaytiradi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar – bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqotga asoslangan, o‘quvchini dars jarayonining markaziga qo‘yuvchi ta’lim usullaridir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olinib, darslar ko‘proq o‘yin, muammoli vaziyat va ijodiy topshiriqlar asosida tashkil etilishi lozim. Shu jihatdan interfaol metodlar ayni muddao hisoblanadi. Masalan, “Aqliy hujum” usuli orqali o‘quvchilarning tezkor fikrlashi rivojlantirilsa, “Klaster” usuli mavzuni tizimli ravishda tushunishga yordam beradi. “Venn diagrammasi” orqali o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanadi, “Rol o‘ynash” usuli esa o‘quvchilarning nutqini va tasavvurini boyitadi.

Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘qituvchi an’anaviy ma’ruzachi emas, balki yo‘naltiruvchi, tashkil etuvchi va motivator vazifasini bajaradi. O‘quvchilar esa faol ishtirokchi sifatida bilimni o‘zlari izlab topadi, muhokama qiladi va xulosa chiqaradi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash kabi muhim kompetensiyalarini shakllantiradi.

Shuningdek, interfaol metodlar dars samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi, fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatadi va dars muhitini ijobiy psixologik holatda tashkil etishga yordam beradi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarning bilim darajasi barqaror oshib boradi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarni bilim olishi birinchi o‘rinda turishini hamma yaxshi biladi. O‘quvchi o‘qituvchi bergan har bir bilimini yaxshi o‘zlashtirishi uchun turli xil metodlarni qo‘llash lozim. Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi tushuniladi. Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Faqatgina o‘qituvchi emas, balki o‘qituvchi bilan birgalikda o‘quvchi ham faol bo‘lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi. Bolalarga dars jarayonlarini turli xil ko‘rnishdagi metodlar o‘yinlar orqali ularga tushuntirib ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilamiz. Dars jarayonida bolalarni zeriktirib qo‘ymaslik uchun ularga turli xildagi metodlar asosida dars jarayonni tashkil qilamiz. Hattoki, ma’lum bir kitobni o‘qiganda, sahifalarida turlicha mazmun kashf etishni ko‘ramiz. Masalan: L.N.Skatkinning “Metodika” kitobini varaqlaganda, kitobning boshida metodikaning umumiy masalalariga daxldor bo‘lgan boblarida muallifning tilida ko‘plab metod so‘zi uchraydi. Lekin, xususiy masalalariga bag‘ishlangan boblarida muallif “metod” so‘zi o‘rniga “usul” so‘zini ishlatilgan. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchining soni va

imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Matematika darslari interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o‘tadi. Chunki, biz bilamizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda o‘yinqaroq bo‘lishadi. Shuning uchun ham darslarni rang-barang metodlar bilan tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun “Ko‘paytirish jadvali”ni tushunishda o‘quvchi qiynaladi. Agar bu mavzu interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o‘quvchining xotirasida qolishi osonroq bo‘ladi. Hozirgi yuksalish va yangilanish davrida yashar ekanmiz biz o‘qituvchilar interfaol metodlar asosida dars jarayonalarini tashkil qilamiz. Oddiygina o‘qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko‘pchiligida o‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usullari, bo‘lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko‘nikmalarga erishiladi, o‘quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Darsda o‘quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlardir. Bu usullar maktab pedogikasi uchun yangilik emas. Ulardan ilgari ham foydalanib kelingan. Qachonki, bu metodlar samarali natija bera oladi: -dars va mavzuning maqsadlari to‘g‘ri aniq tanlanganda; -mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa; -bir metod butun darsni qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa; -tanlagan metod o‘quvchilarga yangi axborotlarni yetkazib bersa, o‘quvchi mavzuni nima haqidaligini tezgina tushuna oladi. Biz dars jarayonida metodlarni qo‘laymiz dedik, bu bilan o‘quvchilarning dars materiallarini o‘zlashtirish darajasini ancha yuqoriga ko‘taradi. Biz dars jarayonida bolalarning yoshiga va bilim darajasiga qarab, interfaol metodlardan foydalanib dars o‘tamiz. So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kopyuter, televideniya, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Biz o‘qituvchilar darslarni turli xil innavotsion

metodlar orqali tushuntirib, yoritib bolalarga yetkazib berishga harakat qilishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, u darslarning sifatini oshirish, o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish va ularni har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sidiqova, D. S. (2021). ZAMONAVIY TA’LIMDA MASOFAVIY O‘QITISH TIZIMI. Scientific progress, 2(7), 1027-1031.

2. Shavkatovna, S. D. (2022). MASOFAVIY TA’LIM SHAROITIDA BOSHLANG ‘ICH TA’LIM YO ‘NALISHI TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 61-62.

3. Shavkatovna, S. D. (2022). Issues of Formation of Professional Competence of Students. European journal of innovation in nonformal education, 2(2), 291-294.

4. Sidiqova, D. (2020). Boshlang‘ich sinflarda interfaol ta'lim va loyihalash texnologiyasi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 4(4).

5. Shavkatovna, S. D. (2021). Developing Students' Professional Competencies in

Distance Learning. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 152- 155.

6. Shavkatovna, S. D. (2021). THE IMPORTANCE OF DISTANCE LEARNING IN THE TEACHING OF" METHODS OF TEACHING MATHEMATICS".

7. Sidikova, S. D. (2021). Theoretical and didactic principles of distance learning. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 541-548.

8. Shavkatovna, S. D. (2021). OLIYGOHLARDA MASOFAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. In Научно-практическая конференция.